



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 5 471 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 399 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 185,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 108,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 123,0 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 71,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 062,0 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 617,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 106 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 075 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 921,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 862,9 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,1 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 96,9 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Tuproqqal'a (12,9 m.), Qo'shko'pir (3,4 m.), Yangibozor (2,5 m.), Yangairq (175,5 %) va Shovot (163,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- aprel holatiga umumiyl ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 354 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 350 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 386,9 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiyl ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingen (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlari natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)